



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**JIZZAX VILOYATIDA CHAKANA VA
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

***Dastlabki ma'lumot
2024-yil yanvar-mart***



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 72-221-51-26***

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024-yil 1-aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 7 914 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 60 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 7 854 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 2 209,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 6,6 % ga o'sdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 94,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 87,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 2 115,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 564,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 113,8 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	2209,6	106,6
Jizzax sh	724,3	109,3
tumanlar :	0,0	
Arnasoy	47,0	103,7
Baxmal	215,2	107,0
G'allaorol	231,9	104,5
Sh Rashidov	203,9	108,8
Do'stlik	101,8	103,4
Zomin	255,4	106,3
Zarbdor	111,3	102,9
Mirzacho'l	58,6	104,3
Zafarobod	49,2	103,0
Paxtakor	127,0	104,0
Forish	55,1	104,4
Yangiobod	28,9	101,8


Viloyatning Jizzax sh (109,3 %), Sh.Rashidov (108,8 %) va Baxmal (107,0 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-mart)




So'nggi 5 yillikda (2020-2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021-yilning mos davriga nisbatan 122,0 % ni tashkil qildi.

2024-yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024-yilning yanvar-mart oyida o'sish sur'ati **106,6 %** ni tashkil qildi.




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shahri 32,9 % bilan 724,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Eng quyi ulushni esa, Yangiobod tumani 1,3 % bilan hajmi 28,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


Hajmi, mlrd. so'm






Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-mart oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra 2 115,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 7,7 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 95,7 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 94,0 mlrd. so'mni, o'sish sur'ati 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 87,2 % ni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,3 % ulushiga to'g'ri keldi.




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Paxtakor (99,6 %), Baxmal (99,5 %), Do'stlik (99,4 %), Zarbdor (99,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 3,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Zomin (14,9 %), Jizzax shahri (5,4 %), G'allaorol (3,2 %), Sh.Rashidov (2,0 %) tumanlarida kuzatildi.

4,3 %

95,7 %




Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



2024-yilning 1-aprel holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1 462,4 ming. so'mni (2023-yilning yanvar–mart oyiga nisbatan 104,4 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (3 689,4 ming. so'm), Paxtakor (1 565,7 ming. so'm) va Do'stlik (1 451,2 ming. so'm) tumanlarilari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024-yil yanvar-mart), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavil'onlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- mart oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	564,9	113,8
Jizzax sh	107,5	116,0
tumanlar :	0,0	
Arnasoy	0,4	128,4
Baxmal	107,9	123,3
G'allaorol	73,2	118,8
Sh Rashidov	42,4	106,4
Do'stlik	32,5	109,8
Zomin	65,1	106,4
Zarbdor	38,9	115,5
Mirzacho'l	25,3	105,8
Zafarobod	0,0	0,0
Paxtakor	34,5	109,9
Forish	26,7	113,1
Yangiobod	10,5	93,6


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-mart)














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024-yil yanvar-mart)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-mart oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 564,9 mlrd. so'mni yoki 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 113,8 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 279,2 mlrd. so'mni (138,4 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 285,7 mlrd so'mni tashkil etdi (111,2 %).













2024-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 279,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (29,2 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>29,2 mlrd. so'm</p>  <p>29,5 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>12,7 mlrd. so'm</p>  <p>12,7 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>9,3 mlrd. so'm</p>  <p>9,3 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>4,6 mlrd. so'm</p>  <p>4,6 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>4,2 mlrd. so'm</p>  <p>4,2 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>5,7 mlrd. so'm</p>  <p>5,7 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>5,4 mlrd. so'm</p>  <p>5,4 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>3,4 mlrd. so'm</p>  <p>3,4 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>15,3 mlrd. so'm</p>  <p>15,3 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>2,4 mlrd. so'm</p>  <p>2,4 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>0,5 mlrd. so'm</p>  <p>0,5 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>7,0 mlrd. so'm</p> <p>7,0 %</p>

2024-yilning yanvar-mart oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 285,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 56,3 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 21,2 mlrd. so'mni, otlar – 0,9 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,2 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p align="center">27,4 mlrd. so'm</p>  <p align="right">34,8 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p align="center">15,2 mlrd. so'm</p>  <p align="right">19,4 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p align="center">13,7 mlrd. so'm</p>  <p align="right">17,5 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p align="center">18,4 mlrd. so'm</p>  <p align="right">23,4 %</p>	<p>Otlar</p> <p align="center">0,9 mlrd. so'm</p>  <p align="right">1,1 %</p>	<p>Echkilar</p> <p align="center">2,8 mlrd. so'm</p>  <p align="right">3,6 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p align="center">0,1 mlrd. so'm</p>  <p align="right">0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p align="center">0,1 mlrd. so'm</p>  <p align="right">0,1 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p align="center">0,0 mlrd. so'm</p>  <p align="right">0,0 %</p>
<p>Qushlar</p> <p align="center">0,0 mlrd. so'm</p>  <p align="right">0,0%</p>		

2024-yil 1-aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 046 tani tashkil etib, ularning barchasi kichik korxonalar va mikrofirmalardir.

	Jami mlrd. so‘m	2023-yil yanvar- mart oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	78,5	107,3
Jizzax sh	35,1	110,0
tumanlar :		
Arnasoy	0,4	113,7
Baxmal	2,5	92,3
G‘allaorol	2,7	109,1
Sh Rashidov	9,9	110,5
Do‘stlik	3,0	109,4
Zomin	6,9	108,0
Zarbdor	3,3	107,4
Mirzacho‘l	1,9	107,0
Zafarobod	2,1	106,5
Paxtakor	4,8	98,8
Forish	4,2	100,6
Yangiobod	1,7	94,4

2024-yilning yanvar-mart oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 78,5 mlrd. so‘mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 7,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 97,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Jizzax viloyati	1 370,7	140,4
Jizzax sh	305,5	121,5
tumanlar :		
Arnasoy	0,9	108,2
Baxmal	705,8	147,5
G'allaorol	109,3	499,6
Sh.Rashidov	170,9	116,6
Do'stlik	0,8	108,2
Zomin	70,5	100,8
Zarbdor	-	108,2
Mirzacho'l	-	108,2
Zafarobod	-	-
Paxtakor	0,3	108,2
Forish	5,6	108,3
Yangiobod	1,1	108,2


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Baxmal (705,8 mlrd. so'm), Jizzax shahri (305,5 mlrd. so'm) va Sh.Rashidov (170,9 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024-yilning yanvar-mart oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 1 370,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 40,4 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 394,8 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 133,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 975,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 143,3 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘langan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. so‘mda)



Viloyat bo‘yicha 2024-yilning yanvar-mart oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 019,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,0 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 1 019,7 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,0 % ga o‘ydi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 98,5 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024-yil 1-aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 1 344 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 22 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 322 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar G'allaorol (27,4 m. %), Zafarobod (16,4 m. %) va Zarbdor (2,1 m. %) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar- mart oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	1 019,7	103,0
Jizzax sh	579,0	113,7
tumanlar :		
Arnasoy	2,5	110,9
Baxmal	19,5	28,7
G'allaorol	36,5	116,4
Sh Rashidov	80,0	101,6
Do'stlik	69,4	100,6
Zomin	109,4	95,1
Zarbdor	17,5	100,1
Mirzacho'l	3,4	99,7
Zafarobod	9,2	101,0
Paxtakor	14,1	110,1
Forish	73,8	107,9
Yangiobod	5,4	99,6